

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O'zbek va ingliz tillaridagi ayrim antroponimlar semantikasi masalalari	444
I.V.Xoldarova, X.A.Erg'oziyeva	
Fonetikani o'qitish orqali o'quvchilar nutqini shakllantirish	448
M.Kaxarova, N.Yunusaliyeva	
O'zbek va nemis tillarida bayram bilan bog'liq leksik birliklar tadqiqi	455
D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova	
Iboralarning lingvopoetik xususiyatlari (Siddiq Mo'min she'riyati misolida).....	458
O.K.Rakhmatova, G.N.Davlyatova	
The structure of speech acts in various types of discourse	462
X.M.Sotvaldieva	
Paremiologiya fan sifatida	467
A.E.Botirova	
Grammatik terminlar lug'atini yaratishda muammo va yechimlar	473
R.Radjabov	
Orfoepiya va uning normalari to'g'risida fikr-mulohazalar	478
M.N.Raxmanova	
Texnik oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun ingliz tili darslarida kasbiy matnlarni tanlash usullari	482
U.B.Almaz, O.X.Barziyev	
Milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi she'riyati va Ozarbayjon adabiyotidagi mazmuniy mushtarakliklar	486
D.Sh.Islomov	
His-tuyg'uning paydo bo'lishi, uning asosiy holatlari psixolog olim Kerroll Ellis Izard talqinida	493
M.M.Abdujabborova, M.M.Yakubbayev	
Talabalarga ingliz tilini o'qitishda aqliy hujum metodini qo'llashning o'rni (nofilologik ta'lim yo'nalishi misolida).....	498
G.A.Saydaliyeva	
Geshtaltlarning turli sinonimik lug'atlarda va kontekstda ifodalanishi.....	501
G.N.Isakova	
Fransuz tilidagi muqaddas matnlarga oid qanotli iboralarning semantikasiga doir.....	506
J.J.Egamberdiyev	
Lug'at zamon va davr elchisi	511
Sh.Sh.Zarmasov	
Ot turkumi ma'no guruhini modellashtirishning lingvostatistik tahlili	515
G.P.Nazarova, F.B.Alimova	
"Harry potter" turkumidagi asarlarda neologizm va okkazonalizmlarning qo'llanilish tadqiqi.....	522
S.A.Mannonova	
Tijoriy yozishmalarda kommunikativ-pragmatik intensiyalarining o'xshash va farqli jihatlari	526
N.K.Ergasheva	
Dynamic interaction of foreign languages: factors of development in a global context	529
A.K.Usmonov	
Monologik nutqda bog'lovchilarning pragmatik xususiyatlari	533
N.K.Abbasova	
Evaluating the impact of digital tools in classrooms and online learning platforms	538
D.G.O'rinboyeva	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ingliz tilini o'rgatish xususida ayrim mulohazalar	542
N.K.Abbasova, M.Abdulkhakimova	
Promoting oral communication through reading integration.....	545
Д.Ш.Рахмонова, Д.У.Ашурова	
Когнитивный подход к анализу художественного текста	550



UO'K: 811.512.133'374(091)

LUG'AT ZAMON VA DAVR ELCHISI

(O'zbek tili lug'atlari evolyutsiyasi haqida)

СЛОВАРЬ - ПОСЛАННИК ВРЕМЕНИ И ПЕРИОДА

(Об эволюции узбекских словарей)

THE DICTIONARY IS A MESSENGER OF TIME AND PERIOD

(About the evolution of Uzbek dictionaries)

Egamberdiyev Jasurbek Jahongirovich

Andijon davlat chet tillari instituti filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

ORCID ID 0009-0002-2982-9480

Annotatsiya

Maqolada o'zbek lug'atshunosligining rivojlanish davrlari, lug'atlarning qay tarzda takomillashib borish jarayoni tahlil qilingan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridan tortib hozirgi "O'zbek tilining izohli lug'ati" gacha bo'lgan lug'atchilikka oid asarlar to'g'risida fikr va mulohazalar keltirilgan. Davrning lug'atshunoslikka ta'siri alohida ta'kidlangan. O'zbek leksikografiyasining tarixiy rivoji, lug'atlar evolyutsiyasi haqida o'zbek tilshunosligida bir qator ilmiy ishlar qilinganligini e'tirof etgan holda va ushbu masala alohida, maxsus izlanishlar obyekti bo'lishligini hisobga olgan holda, mazkur maqolada faqat so'nggi yillarda chop etilgan lug'atlarning zamon va davr bilan bog'liq tomonlariga e'tibor qaratib, xulosalar berilgan. Birinchidan, dastlabki barcha lug'atlar ikki tili bo'lib (ba'zilar ko'p tili), xorijiy tillardagi so'zlarni, maqol va matalarni, iboralarni turkiy (o'zbek) tiliga tarjima qilish maqsadida tuzilgan. Ikkinchidan, ular katta emas, olingan so'zlar ko'lami ommabop-kundalik so'zlardan tashkil topgan. Uchinchidan, davr taqozosi tufayli ko'p lug'atlar qo'lyozma shaklda bo'lib, ularning adadi ham ko'p bo'lmagan. To'rtinchidan, so'nggi XX-XXI asrlarga qadar o'zbek tilining bir tili izohli lug'atiga tartib berilmagan. O'zbek tilining dastlabki izohli lug'ati XX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan. Barcha mulohazaga tortilgan lug'atlarni o'z davrining yorqin "oynasi" sifatida e'tirof etish mumkin.

Аннотация

В статье анализируются периоды развития узбекской лексикографии, процесс совершенствования словарей. Представлено произведение Махмуда Кашгари «Девону луготит турк» к действующему «Аннотированному словарю узбекского языка». Подчеркивается влияние периода на лексикологию. Признавая, что в узбекском языкознании был сделан ряд научных работ об историческом развитии узбекской лексикографии, эволюции словарей и учитывая, что этот вопрос является объектом отдельного, специального исследования, в данной статье даны выводы, обращающие внимание только на те аспекты словарей, которые были опубликованы в последние годы, связанные с временем и эпохой. Прежде всего, все первые словари были двуязычными (некоторые из них были многоязычными) и создавались для перевода иноязычных слов, пословиц и поговорок, словосочетаний на турецкий (узбекский) язык. Во-вторых, они невелики, спектр получаемых слов составлен из популярных обиходных слов. В-третьих, в силу требований времени многие словари были рукописными, и их было немного. В-четвертых, одноязычный толковый словарь узбекского языка не был организован вплоть до последних 20-21 веков. Первый толковый словарь узбекского языка был создан во второй половине XX века. Все рассмотренные словари можно признать ярким «зеркалом» своего времени.

Abstract

The article analyzes the periods of development of Uzbek lexicography, the process of improvement of dictionaries. Opinions about dictionaries from Mahmud Kashgari's "Devonu lugotit turk" to the current "Explanatory dictionary of the Uzbek language" are presented. The influence of the period on lexicography is emphasized. Recognizing that a number of scientific works have been carried out in Uzbek linguistics on the historical development of Uzbek lexicography, the evolution of dictionaries, and taking into account that this issue is the object of separate, special research, the articles published only in recent years are discussed. Conclusions are given, paying attention to the aspects related to time and period of the presented dictionaries. First of all, all the first dictionaries were bilingual (some of them were multilingual) and were created to translate foreign language words, proverbs and sayings, phrases into Turkish (Uzbek). Secondly, they are not large, the range of words obtained is made up of popular everyday words. Thirdly, due to the requirements of the time, many dictionaries were in handwritten form, and there were not many of them. Fourthly, the monolingual explanatory dictionary of the Uzbek language was not compiled until the last 20th-21st centuries. The first explanatory dictionary of the Uzbek language was created in the second half of the 20th century. All considered dictionaries can be recognized as a bright "mirror" of their time.

Kalit soʻzlar: soʻz, soʻzlik, til, izoh, davr, zamon, qoʻlyozma, adad, termin, atama, bir tilli, ikki tilli, kodifikatsiya, ibora, leksema.

Ключевые слова: слово, лексика, язык, объяснение, период, время, рукопись, число, термин, однопольный, двупольный, кодификация, словосочетание, лексема.

Key words: word, vocabulary, language, explanation, period, time, manuscript, number, term, monolingual, bilingual, codification, phrase, lexeme.

KIRISH

Har qanday xalqning tarixiy taraqqiyot yoʻli oʻsha xalqning benazir xazinasini boʻlmish tili orqali tasavvur qilinishini isbotlashning zaruriyati boʻlmas kerak. Chunki til va xalq ajralmas bir butunlik, oʻxshatish joiz boʻlsa, bir varaqning ikki beti, biri ikkinchisini abadul-abad taqozo etadi. Uning bir betida yuzaga kelgan ashyo-narsa, ikkinchi betida namoyon boʻladi.

Yozuvga olingan eskilikmi, yangilikmi asta-sekin xalqning boyligiga, tarixiga aylanaveradi. Poyonsiz til boyligini tarix zarvaraqlariga muhrlash bilan shugʻullanuvchi shaxslar – lugʻatshunoslardir. Ular tom maʼnoda xalqparvar, taraqqiyparvar, fidoiy insonlardir. Chunki ular koʻp yillik mashaqqatli, ogʻir mehnatlari orqali, nafaqat, oʻz xalqining til xazinasidan, balki, xorijiy til boyligidan ham oʻz xalqini voqif etadilar. Misqolab toʻplangan til boyligi orqali xalqning madaniyati, maʼrifati, taʼlim va tarbiya kabi bebaho ashyolarni asragan holda, avlodlar uygʻunligiga xizmat qiladilar. Fikrimizning yorqin dalili sifatida bundan salkam ming yil avval bobomiz Mahmud Koshgʻariy tomonidan tartib berilgan “Devonu lugʻotit turk” nomli noyob turkiy xalqlar xazinasini eslashning oʻzi kifoya. Soʻnggi yarim asrdan ortiqroq davrda ushbu tarixiy manba toʻgʻrisida yetuk filolog olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar, monografik izlanishlar olib borilganligi sababli biz taniqli lugʻatshunos Abdurahob Madvaliyevning lugʻat haqidagi quyidagi fikr, mulohazalari bilan chegaralanishni maʼqul deb topdik: “Ushbu asar, – deb yozadi A.Madvaliyev-turkiy xalqlar tarixidagi dialektologik, izohli, etnografik, tarixiy-etimologik va boshqa xil lugʻatlarning barcha unsurlarini qamrab oluvchi dastlabki universal lugʻat boʻlib, oʻz muallifini dunyoga, butun turkiy olamga ulugʻ adabiyotchi, tarixchi, geograf va boshqa koʻp fanlardan yaxshi xabardor boʻlgan yirik fan arbobi, qomusiy olim sifatida tanitdi. Mazkur asarda muallif turkiy qabila va urugʻlar (xalqlar) tillaridagi soʻzlar maʼnosini arab tilida izohlab berdi. Misol sifatida esa maqollardan foydalandi va barcha adabiyotlardan parchalar keltirdi”[1].

Demak, lugʻat deb nom olgan ushbu tarixiy asar turkiy xalqlarning XI asrdan va undan ham avvalroq davrdan xabar beruvchi beminnat elchisidir. Har qanday lugʻatning oliy maqsadi va vazifasi ham ana shunda boʻlsa kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“Devonu lugʻotit turk” kabi yuksak eʼtirofqa ega boʻlgan tarixiy lugʻatlardan biri 1137-yili qomusiy olim Mahmud Zamaxshariy tomonidan tartib berilgan “Muqaddimat ul-adab” asaridir. Ushbu lugʻat koʻp tilli lugʻatlarning ilk namunasi boʻlib, oʻsha davrdagi arab tilida keng isteʼmolda boʻlgan bir qator soʻzlarni etimologik talqin qilish bilan birga ularning fors, chigʻatoy (oʻzbek), moʻgʻul, turk tillaridagi ekvivalentlari – tarjimalarini ham bergan. Lugʻat hajm jihatdan katta boʻlmas-da, koʻp asrlik lisoniy maʼlumotlar durdonasi hisoblanadi. Ushbu noyob leksikologik-leksikografik maʼlumotlarga boy toʻrt tilli (arab, fors, turkiy, moʻgʻul tillari asosida tartib berilgan) asar zamonaviy mavzuviy-ideografik lugʻatlarning dastlabki namunasi sifatida eʼtirof etishga loyiq. “Unda soʻzlar, - deb yozadi A.Madvaliyev, - muayyan mavzular asosida vertikal holda joylashtirilgan: birinchi qatorda arabcha soʻzlar, ularning koʻplik shakli va sinonimlari berilib, keyingi ikkinchi, uchinchi, toʻrtinchi qatorlarda tegishli arabcha soʻz ostida uning forscha, turkiy, moʻgʻul tillariga tarjimalari berilgan.”[1]

Yuqorida koʻrsatilgan ikki tarixiy lugʻatlar bilan birga soʻnggi XII-XIII asr mobaynida turkiyzabon tillar bilan bogʻliq qator ikki va koʻp tilli lugʻatlarga tartib berilgan. Ularning aksariyati qoʻlyozma lugʻatlar boʻlib, XI-XIX asrlar oraligʻida yaratilgan. Ularga olingan soʻzlarning soni, yaʼni soʻzlik koʻlami katta hajmda boʻlmagan. Lugʻatlar qoʻlyozma boʻlganligi sababli ularning adadi ham chegaralangan boʻlgan. Qizigʻi shundaki, lugʻatlarga olingan soʻzlar ommaviy, sodda soʻzlar boʻlib, ularda ijimoiy-siyosiy, ilmiy-texnikaviy soʻzlar yoʻq hisobida. Ushbu koʻrsatkich oʻsha davr holatidan, taraqqiyotidan, salohiyatidan dalolat beradi. Bundan tashqari, soʻzlarni ularning mazmun-mohiyatini

TILSHUNOSLIK

ochib berishga xizmat qiluvchi o'sha davr adabiy-ilmiiy adabiyotlaridan olingan daliliy ilustrativ misollar keltirilmagan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbek leksikografiyasining tarixiy rivoji, lug'atlar evolyusiyasi haqida o'zbek tilshunosligida bir qator ilmiy ishlar qilinganligini e'tirof etgan holda va ushbu masala alohida, maxsus izlanishlar obyekti bo'lishligini hisobga olgan holda, biz so'nggi yillarda chop etilgan lug'atlarni zamon va davr bilan bog'liq tomonlariga e'tibor qaratmoqchimiz.

Darvoqe, biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, har qanday lug'at o'z davrining mahsuli. Har bir davrning o'ziga xos falsafasi, "dunyosi" mavjud. XX asrning taraqqiyot yo'li har qanday til "dunyosiga" keng ko'lamda ta'sir o'tkazmasdan qo'ymaydi. Shu jumladan, o'zbek tili leksik ko'lamining kengayishi ham O'zbekistondagi ijtimoiy muhit, yangi yo'nalishdagi ta'lim-tarbiya o'choqlarining yuzaga kelishi, yangi fan-texnika maskanlarining shakllanishi bilan bog'liqdir.

Lug'atshunoslik falsafasiga davr ijimoiy-siyosiy muhitining ta'sir darajasini alohida e'tirof etish lozim. Bir vaqtlar arab, fors tillarining bizning makonlardagi maqomi yuqori bo'lganligi tufayli ikki tilli arabcha-o'zbekcha, forscha-o'zbekcha va boshqa ko'p tilli lug'atlarga tartib berishni taqozo etgan edi. XX asrdan boshlab, aniqrog'i o'zbek tili yozuv tizimini kiril-rus yozuv tizimiga almashtirilishi (1940) qator yangi lug'atlar tuzishga olib keldi. Ushbu o'rinda rus leksikografiyasining ham nazariy, ham amaliy jihatlari ta'sirini alohida ta'kidlash lozim.

"Tillarning lug'at ko'lamini oshirishda, - deb yozadi professor M.Umarxodjayev, - lug'atshunoslikning ahamiyati katta bo'ldi. Ma'lum qisqa vaqt davomida bir qator ikki tilli tarjima lug'atlariga tartib berildi. Masalan, taniqli qomusiy olimlar T.N.Qori-Niyoziy, A.K.Borovkovlar tomonidan 1941-1942 yillari "O'zbekcha-ruscha lug'at" hamda "Ruscha-o'zbekcha lug'at" tuzildi. 1950 yilga kelib tilshunos olimlar A.Usmonov va G'.Abdurahmonov tomonidan yana bir ruscha-o'zbekcha lug'at chop etildi. Rus tili asosida barcha turkiy zamon xalqlarining ikki tili lug'atlariga tartib berish boshlandi: "Ruscha-tatarcha lug'at" (1941), "Ruscha-boshqirdcha lug'at" (1948), "Ruscha-turkmancha lug'at" (1956), "Ruscha-qirg'izcha lug'at" (1957), "Ruscha-qozoqcha lug'at" (1959) va boshqalar.[2]

Ikkinchi jahon urushining ta'sirida urushdan keyingi yillarda dunyo mamlakatlarining deyarli barchasida ilm-fan va texnika keskin rivojlana boshladi. Ayniqsa, harbiy qurol-yaroqlar, atom hamda yadro bombalarini yaratish borasida musobaqalar avj oldi. Buning ntijasida ham turli fan yo'nalishlarining terminologik tizimlari yaratildi va lug'at boyliklari ko'payib boradi.

XX asr o'zbek leksikografiyasi haqida gapirganda, rus tili leksikografik ta'limini alohida gapirmaslikning iloji yo'q. Chunki so'nggi salkam bir asrlik davrda o'zbek tili izohli lug'atlari, ikki va ko'p tilli soha terminlari lug'atlari rus leksikografiyasi yo'nalishida rivojlanganligi ayni haqiqatdir.

Lug'atlarning so'zlik ko'lamini oshirish, ijtimoiy-siyosiy terminlarni kiritish-kiritmaslik, ularga berilayotgan izohlar-definitsiyalar rus leksikografiyasi, sobiq sho'ro mafkurasi ta'sirida bo'ldi. O'zbek tilining izohli bir tilli "O'zbekcha-o'zbekcha" lug'atiga tartib berildi. Bundan tashqari, bir qator tarixiy lug'atlar, imlo, talaffuz (orfoepik), morfem, frazeologik, terminologik, omonimlar, sinonimlar, antonimlar, toponimlar va sheva lug'atlari tuzila boshlandi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, o'tgan asrning ikkinchi yarmi o'zbek leksikografiyasi, ya'ni lug'atlar tizimini ilmiy hamda amaliy nuqtayi nazardan, lug'atga olingan so'zliklarning soni va ularning ilmiy-lingvistik tahlili, lug'at turlarining shakllanishi bo'yicha alohida e'tirofqa loyiq davri deyish mumkin. E'tiborli tomoni, o'zbek tilining minglab so'zlari, iboralari, maqol va matallarini o'z ichiga olib, ularni izohlab, turli adabiyotlardan olingan ilustrativ misollar bilan dalillangan zamonaviy leksikografik parametrlar asosida tuzilgan izohli lug'atlar shakllandi. Ushbu o'rinda, 1934-yilda ilk marotaba mukammal ilmiy asoslangan D.N.Ushakovning "Tolkoviy slovar russkogo yazika" hamda taniqli tilshunos-lug'atshunos S.Ojegovning "Slovar russkogo yazika" (Moskva, 1956) kabi rus tilining izohli lug'atlari sobiq sho'ro tarkibidagi Milliy respublikalar tillarining izohli lug'atlarini tuzishda andoza vazifasini o'tadi. Jumladan, o'zbek tilining ikki tomli izohli lug'ati chop etildi. Lug'at Moskva shahridagi "Russkiy yazik" nashriyotida 1981-yilda nashr etildi. Lug'atning so'z boshisi quyidagi so'zlar bilan boshlanadi: "O'zbek tilining izohli lug'ati o'zbek halqi tarixida birinchi marta nashr etildi. 1970-yilda mamlakatimizda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra o'zbek tilida so'lashuvchilar soni 9.2 millionni tashkil etadi. Shuning o'ziyoq o'zbek tili izohli lug'atining qanchalik zarur ekanligini yaqqol ko'rsatadi"[6].

Albatta, har qanday lug'at tuzilishi jarayonida o'zidan avvalgi mavjud bo'lgan lug'atlar manbalaridan foydalanilishi tabiiy hol. Shu o'rinda ilk bor tartib berilayotgan o'zbek tilining izohli lug'ati uchun asosan o'sha davrdagi ikki tilli ya'ni, o'zbekcha-ruscha, ruscha-o'zbekcha lug'atlar zahirasidan keng foydalanilgan. Ko'rsatib o'tilgan barcha lug'atlar yangi izohli lug'atning yuzaga kelishida asos vazifasini o'tagan desak, xato qilmagan bo'lamiz.

"Lekin, - deb yozadi lug'at mualliflari, - izohli lug'atni tuzish uchun bevosita asos bo'lgan lug'at 1959-yilda nashr etilgan "O'zbekcha-ruscha lug'at"dir. Unda o'zbek leksikografiyasining tajribasi umumlashtirilgan, hozirgi zamon o'zbek tilining leksik-semantik sistemasi Oktabrdan keyingi davrda shakllangan (ta'kid bizniki) normalari birinchi marta keng tavsiflangan. "O'zbekcha-ruscha lug'at" normativlik prinsipiga asoslangan. Izohli lug'at ham o'zbek tilining normativ lug'atidir"[6].

Ilk bora tartib berilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"ni yuqori baholab va uning kelgusi o'zbek lug'atshunosligi rivojiga benazir ta'sirini e'tirof etgan holda, lug'at tuzish jarayonidagi ikki holat yuzasidan fikrlarimizni bayon etsak. Birinchidan, lug'at tuzish uchun aholi soni ko'payganligi sabab qilib ko'rsatilgan bo'lsa (bu ko'rsatkich ahamiyatli, lekin asosiy tamoyil emas), ikkinchi tomondan, o'zbek leksik-semantik tizimi Oktabrdan keyingi yillar bilan chegaralangan. Albatta, bunday qarashlarning barchasi davr siyosiy mafkurasi bilan bog'liq bo'lgan, lekin tilga, milliy madaniyatga chuqurroq tarixiy qarashlarga nisbatan salbiy munosabatlar mavjud edi. Shular va boshqa subyektiv sabablar orqali lug'at mualliflari markaz ko'rsatib bergan chegaradan chiqa olmas edilar. Lug'atga kiritilgan qator ijtimoiy-siyosiy, tarixiy voqe'larni ifodalovchi leksemalar sho'ro davri siyosatidan kelib chiqqan holda ta'riflangan va izohlangan.

O'zbek tilining izohli lug'atlari evolyusiyasining tom ma'noda yorqin misoli sifatida 2006-2008-yillarda chop etilgan besh tomli "O'zbek tilining izohli lug'ati"ni e'tirof etish lozim. Mazkur lug'atning dunyoga kelishi bir tomondan, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi, ikkinchi tomondan O'zbekiston mustaqil davlat maqomini olishi bilan bog'liq. Ushbu ijtimoiy, siyosiy o'zgarishlar o'zbek tilini mamlakatning barcha jabhalariga o'z ta'sirini o'tkazdi va til leksik-semantik ko'lami ortishiga, ba'zi hollarda esa o'zgarishiga olib keldi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni 2023-yilda yangi lotin yozuviga moslashgan o'zbek tili alifbosidagi 6 tomli "O'zbek tilining izohli lug'ati" haqida ham gapirish mumkin. Bu lug'at dastlabki besh tomli lug'at asosida tuzilgan bo'lib, davr taqozosi bilan paydo bo'lgan bir qancha leksik, terminologik, frazeologik birliklar bilan to'ldirilgan.

Lug'atning maqsadi va vazifasi, unga kiritilgan yangi so'zlar, iboralar ko'lami hamda definitsiya (izohlash) masalalari va boshqa leksikografik tamoyillar alohida ilmiy tadqiqot obyekti bo'lishi maqsadga muvofiq deb bilamiz.

XULOSA

Xulosa qilsak, **birinchidan**, dastlabki barcha lug'atlar ikki tilli bo'lib (ba'zilar ko'p tilli), xorijiy tillardagi so'zlarni, maqol va matallarni, iboralarni turkiy (o'zbek) tiliga tarjima qilish maqsadida tuzilgan. **Ikkinchidan**, ular katta emas, olingan so'zlar ko'lami ommabop-kundalik so'zlardan tashkil topgan. **Uchinchidan**, davr taqozosi tufayli ko'p lug'atlar qo'lyozma shaklda bo'lib, ularning adadi ham ko'p bo'lmagan. **To'rtinchidan**, so'nggi XX-XXI asrlarga qadar o'zbek tilining bir tilli izohli lug'atiga tartib berilmagan. O'zbek tilining dastlabki izohli lug'ati XX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan. Barcha mulohazaga tortilgan lug'atlarni o'z davrining yorqin "oynasi" sifatida e'tirof etish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мадвалиев, А., & Ҳаққул, И. (2017). *Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари*. Davlat ilmiy nashriyoti.
2. Мухторхон Умархўжаев.. *Сўз дунёси – тил дунёси, тил дунёси – сўз дунёси*, "Андижон давлат университети" нашриёти, (2023) 67-68 б.
3. Иброҳимов, С. *Фарғона шеваларининг касб-хўнарс лексикаси*. Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси нашриёти. (1956).
4. Ҳасан, Б. Қуръон-и карим сўзларининг арабча-ўзбекча кўрсаткичли луғати. Т.: *Адабиёт ва санъат*, (1995). 518.
5. Умархўжаев, М.Э.. Диний атамалар ва иборалар. *Оммабоп қисқача изоҳли луғат*. Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. (2016)
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати Москва, Издательство "Русский язык", 1981, 1-бет.